
SOLIQCHI - TADBIRKORGA KO'MAKCHI TAMOYILI ASOSIDA TADBIRKORLIK SUB'EKTLARI MUAMMOLARINI O'RGANISH HAMDA ULARGA KO'MAKLASHISH BO'YICHA



“Soliqchi - tadbirkorga ko'makchi” tizimini amaliyotga keng joriy etish maqsadida, soliq idoralari tomonidan **joriy yil 1 sentyabrga** qadar viloyatning barcha hududlarida **586 ta tadbirkorlarni** qiynayotgan muammolari o'rganildi. O'rganishda **403 ta muammosi mavjud** tadbirkorlik sub'ektlari aniqlandi. Aniqlangan muammolar 14 ta yo'nalishda (soliq organlariga aloqador masalalar 10 ta, boshqa idora va tashkilotlarga aloqador muammolar 4 ta) belgilab olinib, o'rganish amalga oshirildi.

O'rganish o'tkazilgan 14 ta yo'nalishda quyidagi natijalar aniqlandi: O'rganishda aniqlangan muammolari mavjud **586 ta** tadbirkorlik sub'ektlarining **403 tasiga ko'maklashish lozimligi, 183 ta tadbirkorlik sub'ektlariga ko'mak zarur bo'lmagan.**

O'rganishda ko'maklashish lozim bo'lgan **403 ta** tadbirkorlik sub'ektlarining muammolari o'rganilganda **342 ta** tadbirkorlik sub'ektlarining **soliq organiga aloqador masalalar bo'yicha** muammolari mavjudligi aniqlandi.

Yuqordagi o'tkazilgan o'rganish natijasida aniqlangan muammolari mavjud tadbirkorlik sub'ektlariga bo'lim va hududiy davlat soliq organlari bilan birgalikda **“Soliqchi - tadbirkorga ko'makchi” tamoyili ostida** quyidagi ishlar amalga oshirildi.

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda muammoga duch kelayotgan **586 ta** tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab quvvatlash maqsadida quyidagi ishlar amalga oshirildi. Soliq organlari bilan bog'liq muammosi mavjud **403 ta** tadbirkorlik sub'ektlariga quyidagicha ko'maklar berildi.

- **203 ta** tadbirkorlik sub'ektlariga dastlabki buxgalteriyasini yuritishga ko'maklashildi.
- **67 ta** tadbirkorlik sub'ektlarida Soliq qarzi to'g'risida ma'lumot olishda.
- **10 ta** tadbirkorlik sub'ektlarida soliq rejimini tanlashga ko'maklashishda.
- **12 ta** tadbirkorlik sub'ektlarida soliq imtiyozlari va ularni qo'llash tartibini tushuntirishlar berildi.
- **8 ta** tadbirkorlik sub'ektlarida shaxsiy hisob varag'idan ko'chirma olishda.
- **5 ta** tadbirkorlik sub'ektlarida qo'shilgan qiymat solig'i to'loviga o'tkazilgan **579 mln so'm** ortiqcha to'lovlari soliq to'lovchilarning bankdagi hisob raqamlariga qaytarib berildi.
- **3 ta** tadbirkorlik sub'ektlarida boshqa soliq turlaridan **12 mln so'm** ortiqcha to'lovlari soliq to'lovchilarning boshqa soliq turidan bo'lgan qarzdorligiga o'tkazib berishda amaliy yordam berildi.
- **3 ta** tadbirkorlik sub'ektlarida **126 mln so'mlik** soliq qarzi muddati uzaytirib berildi;
- **2 ta** tadbirkorlik sub'ektlarida **11 mln so'mlik** MIB orqali debitor qarzdorligi summasi undirilgan.

29 ta tadbirkorlik sub'ektlarida soliq organiga aloqador boshqa masalalarda ko'maklar berildi.

Davlat soliq xizmati insofli soliq to'lovchining ishonchli hamkori!

Atayev A.A.- So'x taman Davlat soliq

inspeksiya “Tadbirkorlikni

qo'llab-quvvatlash” sho''basi

davlat soliq bosh inspektori

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2021-10-08 09:19:45